



THE ESSENCE OF INTERACTIVE COMMUNICATION AND ITS SIGNIFICANCE IN EDUCATION

Eshonkulova Muattar Tojiboevna

Doctoral student of Kokand State Pedagogical University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17066651>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 04th September 2025

Online: 05th September 2025

KEYWORDS

Interactive communication, dialogue, empathy, educational process, culture of communication, primary education, communicative competence, pedagogical communication, didactic methods, digital platforms.

ABSTRACT

This article comprehensively analyzes the theoretical and methodological foundations of interactive communication, its role in the educational process and its impact on the student's personality. Based on the theories of Vygotsky, Bakhtin and Brunner, the dialogic, empathetic and intersubjective features of interactive communication are highlighted. On the example of interactive models specific to educational sciences, especially in primary education, the intellectual, educational and communicative functions of communication are revealed. At the same time, methods of organizing effective communication through digital platforms and its importance in forming communicative culture, empathy, leadership, social responsibility and the ability to express personal thoughts in students are substantiated.

INTERFAOL MULOQOTNING MOHIYATI VA UNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Eshonqulova Muattar Tojiboyevna

Qo'qon davlat pedagogika universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17066651>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 04th September 2025

Online: 05th September 2025

KEYWORDS

Interfaol muloqot, dialog, empatiya, ta'lim jarayoni, muloqot madaniyati, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya,

ABSTRACT

Ushbu maqolada interfaol muloqotning nazariy-metodologik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va o'quvchi shaxsiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Vigotskiy, Baxtin va Brunner nazariyalari asosida interfaol muloqotning dialogik, empatik va intersub'yektiv xususiyatlari yoritiladi. Ta'lim fanlariga xos interfaol modellar misolida, ayniqsa boshlang'ich ta'limda muloqotning aqliy, tarbiyaviy va kommunikativ



pedagogik muloqot, didaktik usullar, raqamli platformalar.

funksiyalari ochib beriladi. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali samarali muloqotni tashkil etish usullari va uning o'quvchilarda kommunikativ madaniyat, empatiya, liderlik, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy fikrni bayon etish qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Har qanday ta'lim jarayonining asosiy mezoni bu samarali muloqotdir. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik jarayonda interfaol muloqot tushunchasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol muloqot bu o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi faol, ikki tomonlama axborot almashinuvi bo'lib, mulohaza, bahs, savol-javob, fikr almashish, tinglash va tushunish jarayonlarini qamrab oladi. U an'anaviy, bir yoqlama muloqotdan farqli o'laroq har bir ishtirokchining faolligini, shaxsiy fikrini bildirishini, muammoga o'z munosabatini bildirishini talab etadi.

Ta'lim jarayonida muloqot faqat axborot yetkazish vositasi bo'libgina qolmasdan, ta'limning mazmun-mohiyatini anglash, ta'limiy maqsadlarga erishish, faol ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilar shaxsiyatini shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol muloqot orqali o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylanadi, bilimni faol o'zlashtiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu esa jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, jamoa bilan ishlay oladigan, muloqotga ochiq shaxsni tarbiyalashda muhim omildir.

Muloqot insonning ijtimoiy tabiati va rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida turli pedagogik va psixologik nazariyalarda muhim o'rin egallaydi. Xususan, L.S.Vigotskiyning ijtimoiy-tarixiy rivojlanish nazariyasida muloqot shaxsning kognitiv taraqqiyotida asosiy vosita sifatida ko'riladi. Uning fikricha, "Insonning ruhiy funksiyalari avvalo ijtimoiy faoliyatda, muloqot jarayonida shakllanadi va keyinchalik ichki psixologik mexanizmga aylanadi". [1; 144] Vigotskiy ta'limda "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali muloqotni o'quvchi rivojidagi vositachi omil sifatida talqin etadi.

M.M.Baxtin esa muloqotni inson tafakkurining va ma'naviy dunyoqarashining asosiy formasi sifatida baholaydi. Uning "dialog" nazariyasiga ko'ra, har qanday ma'no to'liq tushunilishi uchun u muloqotdagi boshqa shaxs nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi lozim. U shunday yozadi: "Shunchaki tug'ilgan ma'no yo'q: har qanday ma'no muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi". [2; 345] Baxtinning dialog nazariyasi ta'limda interfaol muloqotni qo'llashning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Baxtinning muloqotga oid qarashlari ta'limdagi ijtimoiy-madaniy yondashuvga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uningcha, dialog bu o'zaro tan olish, tinglash va fikrlash jarayoni bo'lib, shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bunday yondashuv interfaol muloqotning empatik va intersub'yektiv xususiyatlarini rivojlantiradi, ya'ni har bir ishtirokchi so'zlashuv jarayonida boshqani his etishga va tushunishga intiladi.

Jerom Brunner esa muloqotni ma'no yaratishning faol jarayoni sifatida ko'radi. U shunday ta'kidlaydi: "O'quvchilar bilimni passiv qabul qilmaydi, balki faol ravishda muloqotda ishtirok etib, uni yaratadi". [3; 21] Brunnerning "ijtimoiy konstruktivizm"



qarashlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogni bilim yaratish vositasi sifatida qarash imkonini beradi.

Brunner ta'limni "interpretatsiya jarayoni" sifatida baholaydi. Uningcha, shaxs ma'lumotni muloqotda, boshqalar bilan fikr almashish orqali qayta ishlaydi va unga shaxsiy ma'no yuklaydi. Bu qarash ta'limda interfaol va ma'no yaratuvchi muloqotni tashkil etishda nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, Vigotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Baxtinning dialog nazariyasi va Brunnerning ijtimoiy konstruktivizmi interfaol muloqotning pedagogik mohiyatini to'liq ochib beradi.

Interfaol muloqot bu shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, unda axborot almashinuvi, his-tuyg'ularni ifoda etish, munosabat bildirish va o'zaro tushunish asosiy o'rin tutadi. Pedagogikada interfaol muloqot ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol aloqalar shaklida namoyon bo'lib, u har ikki tomonning faol ishtirokini, fikr almashuvini va ma'naviy-axloqiy munosabatlarni qamrab oladi. Psixolog A.A.Leontevning ta'kidlashicha, "Muloqot bu nafaqat axborot almashish, balki insonlarning birgalikda faoliyat yuritishiga asos bo'ladigan faoliyat shaklidir". [4; 284]

Interfaol muloqotda subyektiv munosabatlar, ya'ni muloqotchilarning his-tuyg'ulari, empatik his etishlari va shaxsiy fikr bildirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'limda interfaol muloqotning o'rganilishi professor L.L.Levina asarlarida keng yoritilgan. Uning ta'kidlashicha, "Interfaol muloqot bu ta'limning ijtimoiy-ruhiy muhitini yaratishga xizmat qiladigan dialogik muloqotning ijodiy shakli bo'lib, shaxslararo munosabatlar orqali bilim o'zlashtirish jarayonini rag'batlantiradi". [5; 55]

Pedagogika fanida interfaol muloqot ta'limdagi hamkorlikka asoslangan muloqot turi sifatida qaraladi. Tadqiqotchi N.Yu.Gavrish ta'rificha, "Interfaol muloqot ta'lim jarayonidagi kommunikatsiyaning eng samarali shakli bo'lib, uning asosida o'quvchi faol subyektga aylanadi va bilimni mustaqil o'zlashtiradi". [6; 93]

Interfaol muloqot ta'limining metodologik asoslaridan biri M.M.Baxtinning dialog nazariyasi hisoblanadi. Uning fikricha, "Har qanday muloqot dialogik tusga ega bo'lishi, ya'ni har bir ishtirokchi o'z qarashini bildira olishi va boshqalarni ham tinglashi lozim". [2; 310] Bu qarash ta'lim jarayonida faol muloqot muhitini yaratish, fikrlar xilma-xilligini e'tirof etish va erkin munosabatni qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda interfaol muloqot pedagogikada tanqidiy fikrlash, shaxsiy o'sish va ijtimoiy integratsiya mexanizmlarining muhim komponenti sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy mualliflar, jumladan, I.A.Zimnyaya ta'limda muloqotning rolini ta'kidlab: "O'quvchida ijodiy fikr, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda interfaol muloqot muhim poydevor vazifasini o'taydi" deb yozadi. [7; 171]

Bizningcha, interfaol muloqot bu o'zaro ta'sirga asoslangan, ikki va ko'p tomonlama muloqot shakli bo'lib, unda har bir ishtirokchi faol subyekt sifatida qatnashadi. Ta'limda interfaol muloqot turlari turli ijtimoiy-o'quv vaziyatlarda namoyon bo'ladi va ularni maqsadga muvofiq ravishda tanlash ta'lim samaradorligini belgilaydi. Bu turlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlardan tortib, o'quvchilar guruhlari va jamoalar o'rtasidagi muloqotlarga qamrab oladi.



Ta'limda interfaol muloqotni samarali tashkil etishda uning empatik, dialogik va intersub'yektiv xususiyatlarini qo'llash juda muhim hisoblanadi. Bu xususiyatlar muloqot jarayonini faqat axborot almashinuvi emas, balki shaxslararo o'zaro anglashuv, ehtirom va hamdardlikka asoslangan ma'naviy muloqot darajasiga olib chiqadi. Zamonaviy pedagogikada ta'lim faqat bilim berish emas, balki tinglash, tushunish, hamdardlik qilish, fikrni qabul qilish va shaxsni tarbiyalash jarayoni sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, interfaol muloqotni empatik, dialogik va intersub'yektiv ruhda tashkil etish ta'limning mazmun-mohiyatini tubdan boyitadi.

Empatik muloqot — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotda his-tuyg'ularni his etish, boshqaning ichki holatiga kirishish qobiliyatiga asoslanadi. Bunday muloqot shaklida har bir o'quvchi o'zini tinglangan, qabul qilingan va tushunilgan deb his qiladi. Empatik munosabat o'qituvchidan tinglash, diqqat qilish, munosabat bildirish, o'zini boshqa shaxs o'rnida tasavvur qilishni talab qiladi. Bu esa o'quv muhitini samarali va emotsional jihatdan barqaror qiladi. Ayniqsa, individual yondashuv va inklyuziv ta'limda empatik muloqot muhim ahamiyatga ega.

Dialogik muloqot — Baxtin nazariyasi asosida shakllangan muloqot shakli bo'lib, har bir ishtirokchining fikri, tajribasi va dunyoqarashi qadrlanadigan, teng huquqli munosabatda tashkil etiladigan muloqotdir. Bunday muloqotda savollar ochiq, fikrlar erkin va pozitsiyalar turlicha bo'lishi mumkin. U tanqidiy fikrlash, ma'no yaratish va shaxsiy ifoda imkoniyatlarini ochib beradi. Dialogik muloqot o'quvchilarni faol tinglovchi va mulohazali ishtirokchiga aylantiradi.

Intersub'yektiv muloqot esa ikki yoki bir nechta sub'yektlar o'rtasidagi faol, ma'naviy va ijtimoiy hamkorlik jarayoni bo'lib, unda bilim, his-tuyg'u va tajribalar birgalikda yaratiladi. Bu muloqot shakli pedagogik jarayonni bir tomonlama emas, balki hamkorlikdagi bilish jarayoniga aylantiradi. Intersub'yektiv muloqotda har bir ishtirokchining shaxsiy dunyosi inobatga olinadi, muloqot mazmuni sheriklikka quriladi. Bu esa ta'limda o'zaro ishonch, munosabat madaniyati va ma'naviy rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. Shu tarzda, interfaol muloqotni empatik, dialogik va intersub'yektiv xususiyatlar asosida tashkil etish nafaqat darsning faolligini ta'minlaydi, balki har bir o'quvchining shaxs sifatida qadrlanishi, tinglanishi va rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bunday muloqot usullari orqali ta'lim faqat bilim berish emas, balki yuksak insoniylik qadriyatlarini shakllantirish vositasiga aylanadi.

Boshlang'ich ta'limda interfaol muloqot nafaqat ta'limiy maqsadlarga erishishda, balki bolaning shaxsiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir fanning xususiyatiga mos ravishda qo'llaniladigan interfaol muloqot modellari o'quv faolligini jonlantiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi va tanqidiy-ijodiy fikrlashni faollashtiradi.

1. Ona tili fanidan interfaol muloqot modeli. Ona tili darslarida interfaol muloqot orqali o'quvchilar nutqiy faollikka undaladi, matn bilan ishlash, savol-javob, dialog tuzish, personajlar orasida bahs tashkil etish, rolli o'yinlar kabi usullar faol qo'llaniladi. Masalan, matndagi qahramonga "Sen qanday qaror qabul qilgan bo'larding?" degan savol berish, so'z va gap ustidan "Fikrlar to'lqini" metodi orqali ishlash, "Qahramonning o'rnida bo'lsangiz, nimalar qilgan bo'lardingiz?" kabi shaxsiy mulohazalarni talab qiluvchi yo'l



bilan interfaol muhit yaratiladi. Bu bolaning nutq madaniyati, his qilish, empatiya, mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Matematika fanidan interfaol muloqot modeli. Matematikada interfaol muloqot ko'proq muammoli masalalarni birgalikda hal qilish, fikr yuritish, strategik yondashuv orqali amalga oshiriladi. Masalan, "Bosqichma-bosqich yechim" metodi orqali o'quvchilar guruhda murakkab masalani qismlarga bo'lib yechishadi, har bir guruh yechimi umumiy tahlil qilinadi. "Men nega bu usulni tanladim?" yoki "Boshqacha qanday yechish mumkin?" kabi savollar orqali o'quvchi mustaqil fikrlashga undaladi. Matematikadagi interfaol muloqot modeli o'quvchida mantiqiy fikrlash, dalillash va algoritmik tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Atrofimizdagi olam fanidan interfaol muloqot modeli

Atrofimizdagi olam fanida interfaol muloqot ko'proq kuzatish, sinov, qiyoslash, baholash, mulohaza bildirish va loyihalashga asoslanadi. Masalan, "Suhbatli kvest" yoki "Keysli tahlil" asosida o'simliklar hayotini tahlil qilish, "Agar sen tabiat muhofazachisi sifatida qaror qabul qilsang..." kabi vazifalar orqali o'quvchi o'z nuqtayi nazarini bildirishga undaladi. "Akvarium" usuli orqali guruhlar ekologik muammolarni muhokama qilib, yechim taklif qiladi. Bu bolada atrofga hurmat, ekologik anglash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrga asoslangan muloqot ko'nikmasini shakllantiradi.

5. Musiqa, tasviriy san'at, texnologiya kabi fanlar interfaol muloqot modeli. Boshlang'ich ta'limda amaliy fanlarda interfaol muloqot o'quvchining individual salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Usullar sifatida "Ijodiy tafsir", "Asar haqida bahs", "Jamoaviy kompozitsiya yaratish", "O'z fikringni himoya qil" kabi modellar ishlatiladi. Masalan, musiqa darsida "Bu kuy senida qanday his tuyg'u uyg'otdi?", "Sen bo'lsang qanday ritm tanlarding?" kabi savollar orqali his qilish, baho berish, so'z orqali ifodalash ko'nikmalari faollashadi. Bu esa muloqotning empatik va estetik qirralarini ham rivojlantiradi.

Umuman, har bir fanga xos interfaol muloqot modelini to'g'ri tanlash va uni mazmunan boy shaklda qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini uyg'un ta'minlash mumkin. Ushbu modellar ta'limda "fan – shaxs – jamiyat" bog'lanishini ta'minlaydigan ta'sirchan vositadir.

Ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bilim berish bilan birga shaxsni shakllantirish, uning ichki salohiyatini ochish va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxsiy qiyofasini rivojlantirishdir. Bu jarayonda interfaol muloqot muhim tarbiyaviy va psixologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsning nutq madaniyati, axloqiy munosabati, ijtimoiy faolligi, o'z-o'ziga ishonchi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Interfaol muloqot ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ madaniyati va empatik qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ madaniyat bu faqat to'g'ri gapirish yoki savol-javob qilish emas, balki muloqotda shaxslararo munosabatlarning odobiga rioya etish, fikrni dalil bilan bildirish, qarshi fikrni tinglash va anglash, tinglovchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi madaniy munosabatlar majmuasidir. Interfaol muloqotda bu madaniyat faol rivojlanadi, chunki o'quvchilar bahs, fikr almashinuvi, jamoaviy muhokama jarayonlarida doimiy ravishda o'zaro ta'sirda



bo'ladilar. Ular nutq orqali o'zini ifoda etishni, muloqot qoidalariga rioya qilishni, fikrni boshqalarga yetkazish va qabul qilishni amalda o'rganadilar.

Bunday muloqot jarayonida empatiya, ya'ni boshqaning his-tuyg'ularini, nuqtayi nazarini his etish, tushunish qobiliyati ham rivojlanadi. Baxtin ta'kidlagan "dialogik munosabat"ning mohiyati shundaki, har bir shaxs boshqani tinglash, qabul qilish va anglashga intiladi. O'quvchilar "Syening o'rningda bo'lsam, nima qilardim?", "U nega shunday fikrda?" kabi savollar orqali emotsional anglashga o'rganadilar. Empatik muloqot guruh ishlari, rolli o'yinlar, ijtimoiy holat tahlili va ssenariyli bahslar orqali tabiiy ravishda yuz beradi. Bu orqali o'quvchida hurmat, bag'rikenglik, bir-biriga nisbatan mas'uliyat va insoniy munosabat shakllanadi.

Shu tariqa, interfaol muloqot ta'limda nafaqat bilim olish, balki shaxsni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalashning samarali yo'liga aylanadi. U orqali o'quvchi erkin so'zlash, tinglash, fikr bildirish va boshqalarni tushunish qobiliyatini o'zlashtiradi, bu esa kelajakdagi faol fuqarolik, jamoada ishlash va yetakchilik salohiyatining poydevoridir.

Interfaol muloqot jarayonida o'quvchilar faqat bilim egasi emas, balki jamoa a'zosi sifatida shakllanadi. Bu jarayonda liderlik qobiliyati va jamoada ishlash ko'nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatiladi. Liderlik – bu tabiiy qobiliyat emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatlarda shakllanadigan, boshqalarni ishontirish, yo'l boshlash, qaror qabul qilish va jamoani birlashtirishga qaratilgan shaxsiy sifatlar majmuasidir. Interfaol muloqot, ayniqsa, jamoaviy topshiriqlar, debatlar, rolli o'yinlar va "keys-stadi" kabi usullar orqali har bir o'quvchiga tashabbus ko'rsatish, guruhni boshqarish va yetakchilik ko'nikmasini sinab ko'rish imkonini beradi.

Jamoada ishlash ko'nikmasi esa hamkorlikda fikr yuritish, vazifalarni taqsimlash, har kimning rolini qabul qilish, birgalikda qaror qabul qilish va umumiy maqsadga erishish jarayonida shakllanadi. Interfaol darslarda guruhli ishlar: "Akvarium", "Rolli o'yin", "Kichik guruhda ishlash" kabi faoliyatlar orqali o'quvchi boshqalar bilan muloqot qiladi, mas'uliyatni his etadi, kelishuv asosida ish yuritishga o'rganadi. Bunda har bir a'zo nafaqat o'z fikri, balki jamoa muvaffaqiyati uchun mas'ul ekanini anglaydi. Bu shaxsiy yetilish, ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolikni rivojlantirishning muhim shartidir. Shu bois interfaol muloqot faqat ta'limiy vazifalarni hal etish vositasi emas, balki hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan yetakchilik, jamoaviy mas'uliyat, hamkorlik, o'zaro hurmat va ishonch kabi insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Interfaol muloqot ta'limda o'quvchining shaxsiy ifodalanish imkoniyatini kengaytirish, uning o'z fikrini erkin bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy darslarda o'quvchi ko'proq passiv tinglovchi, tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, interfaol muloqot asosida tashkil etilgan o'quv muhitida u shaxsiy nuqtayi nazarga ega faol subyektga aylanadi. Bunday muhitda "O'z so'zimni aytishim mumkin", "Myening fikrim tinglanadi", "Myen to'g'ri fikr bildirishga haqliman" degan ichki his paydo bo'ladi, bu esa shaxsiy salohiyatni ochish va rivojlantirishning psixologik poydevori sanaladi.



O'z fikrini erkin bayon qilish bu nafaqat so'zlash qobiliyati, balki mustaqil mulohaza, pozitsiyani shakllantirish, dalillash va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish jarayonidir. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun "Ochiq savollar", "Bildirgan fikringni asosla", "Pozitsiyangni himoya qil", "Myen nima deb o'ylayman?" kabi usul va topshiriqlar juda samaralidir. Ayniqsa, rolli o'yinlar, debat, esse yozish, shaxsiy tafsir, ijodiy yondashuvni talab qiluvchi faoliyatlar o'quvchining ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga, individual qarashlariga tayangan holda uni shaxsiy muloqotga chorlaydi.

Bu jarayonda o'quvchi nafaqat axborotni qayta ifoda etadi, balki uni qayta tahlil qiladi, unga shaxsan munosabat bildiradi, shaxsiy tajribasini bog'laydi. Har bir fikr muloqot jarayonida qadrlansa, o'quvchi o'z so'zi va fikri uchun mas'ullikni his eta boshlaydi. Bu esa uning nutqiy madaniyati, psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatining o'sishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, interfaol muloqot o'quvchi shaxsiyatida erkin fikr, ichki muhokama, ma'no yaratish va ijtimoiy munosabatlarga faol aralashish salohiyatini uyg'otadi. Bu qobiliyatlar esa zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli shaxsning ajralmas jihatlaridir.

Interfaol muloqot – bu zamonaviy ta'limning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, uning tatbiqi o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy yetuklikka ega shaxsni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda tahlil qilingan nazariy va amaliy jihatlar shuni ko'rsatadiki, interfaol muloqotni to'g'ri tashkil etgan holda ta'lim jarayonini faol, mazmunli va samarali shaklga keltirish mumkin. U nafaqat axborot almashish, balki ma'no yaratish, shaxsiy ifoda, dialog va ijtimoiy hamkorlik vositasiga aylanadi.

Tadqiqotda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

darsni interfaol shaklda tashkil etishda fan xususiyatiga mos bo'lgan usullarni (debat, kvest, keys, maynd-karta, akvarium va h.k.) maqsadli tanlash va ularning pedagogik vazifasini aniq belgilash;

dars jarayonida har bir o'quvchini fikr bildirishga undash, "Empatik tinglash", "Ochiq savollar" va "Pozitsiyangni himoya qil" kabi shakllardan muntazam foydalanish;

muloqotda shaxslararo munosabatlar madaniyati (hurmat, bag'rikenglik, tolerantlik) ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

raqamli platformalarda (Zoom, Padlet, Mentimeter va boshqalar) interfaol muloqotni tashkil etish bo'yicha o'qituvchida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

muloqot faoliyatini baholash uchun refleksiya varaqalari, o'zini baholash savolnomalari va mulohazaviy muloqot jurnallarini joriy etish.

Tadqiqotchilar uchun interfaol muloqot muammosini o'rganishlari uchun yo'nalishlar sifatida esa quyidagilarni tavsiya etamiz:

boshlang'ich, umumiy va oliy ta'lim bosqichlarida interfaol muloqotning fanlararo o'rni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish;

interfaol muloqotning raqamli ta'lim muhitidagi psixologik va pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish;

inklyuziv ta'lim sharoitida interfaol muloqot modellarini ishlab chiqish va ularni maxsus pedagogikada sinab ko'rish;



interfaol muloqot asosida faol fuqarolik, axloqiy tarbiya, media savodxonlik, yetakchilik qobiliyati va boshqa umumiy kompetensiyalarni shakllantirish strategiyalarini tadqiq etish;

o'qituvchilarning interfaol muloqotni tashkil etishga tayyorligi, pedagogik ko'nikmalari va emotsional intellekt bilan bog'liq jihatlarni o'rganish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, interfaol muloqot bu insonning boshqalar bilan his etish, anglash va ma'no yaratish orqali shakllanadigan ichki ruhiy taraqqiyotiga asos bo'ladigan jarayondir. U ta'limda faqat bilim olish vositasi emas, balki fikrlash, baho berish, hamkorlik va shaxsiy ifoda maydonidir. Erkin muloqot muhitida bola o'z so'ziga ishonadi, boshqani tinglaydi, jamoaga qo'shiladi va fikrlar trang-barangligini qadrlay boshlaydi. Shu orqali u bilim emas, hayot uchun yetuklikni anglaydi. Demak, haqiqiy ta'lim, avvalo, samimiy va ma'naviy boy muloqotda boshlanadi.

References:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 2007. — С. 144.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 2009. — С. 345.
3. Bruner J. The Culture of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1996. — P. 21.
4. Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 1996. — 284 с.
5. Левина Л.Л. Диалог в образовании. — СПб.: Речь, 2004. — С. 55.
6. Гавриш Н.Ю. Педагогика общения. — М.: Академия, 2012. — С. 93.
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2004. — С.171.